


56. Bir nechta sonni ustun ko'rinishida qo'shish

Yondosh mavzu:
fermerlar

O'nliklar va birliklar
xonalar



1. Fermer sotuvga 136 qop kartoshka, 270 qop sabzi va 124 qop piyoz yubordi. Fermerning daftaridagi yozuv nimani bildirishini tushuntiring. To'g'ri hisoblanganmi?

	1	1	
+	1	3	6
+	2	7	0
+	1	2	4
	5	3	0

Bir nechta sonni qo'shishda, ular xonalar bo'yicha: birliklar ostiga birliklar, o'nliklar ostiga o'nliklar, yuzliklar ostida yuzliklar tushadigan qilib ustun ko'rinishida yoziladi. Sonlar ham xonalar bo'yicha qo'shiladi.



	1	1				1			
+	3	1	8			4	3	2	
+	1	9	3			5	7		
+	2	4	1				6		
	7	5	2			4	9	5	



2. Dastlabki uchta ustunda qo'shish amallarini bajaring. Siz nimani sezdingiz? Oxirgi yig'indi qanday bo'lishi mumkin? Tekshiring.

$$\begin{array}{r} 437 \\ + 128 \\ \hline 281 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 225 \\ + 368 \\ \hline 254 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 118 \\ + 439 \\ \hline 291 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 550 \\ + 259 \\ \hline 40 \end{array}$$



3. Fermer birinchi yerdan 257 kilogramm, ikkinchi yerdan 280 kilogramm, uchinchi yerdan ikkinchi yerdagidan 47 kilogramm kam kartoshka yig'ib oldi. Fermer uchta yerdan jami nechta kilogramm kartoshka yig'ib oldi?

56. Bir nechta sonni ustun ko'inishida qo'shish



4. Qo'shishni qulay usulda bajaring. O'z tanlovingizni asoslang.

$$430 + 60 + 70 + 40$$

$$762 + 45 + 55 + 38$$

$$229 + 71 + 206 + 94$$

$$152 + 67 + 48 + 133$$



5. Tenglamalarni yeching.

$$191 + x = 220 + 145$$

$$800 - z = 337 - 184$$




6. Fermer o'z dalalari rejasini tuzdi.

Ular orasidan

a) shakli teng bo'lgan maydonlarni;

b) teng sondagi kvadratlarni o'z ichiga olgan maydonlarni toping.



7. Hisoblang va ekishni, hosilni yig'ib olishni, yerga qanday o'g'it solishni va zararkunandalardan qanday xalos bo'lishni biladigan kasb egasining nomini bilib oling.

A	$764 - 238$	G	$267 + 59$	N	$893 - 377$
O	$532 + 198$	M	$158 - 96$	R	$467 - 228$

526	326	239	730	516	730	62



8. Mevali daraxtlarni sug'orish uchun 260 litr suv, butalar uchun 270 litr va tomorqani sug'orish uchun 350 litr suv ishlatilgan. Sug'orish uchun jami qancha suv sarflangan?